



UDK:930

**Maftuna NARZIYEVA,**  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: maftunanarziyeva1522@gmail.com

PhD Sh. Ravshanov taqrizi asosida

### XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT MEHNAT QUOLLARI VA MASHINALAR OMBORINING TURKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJIDAGI ISHTIROKI (ARXIV MANBALARI ASOSIDA)

Аннотация

Ushbu Toshkentda faoliyat yuritgan mehnat quollari va mashinalar ombori hamda uning joylardagi bo‘limlar faoliyati tarixi haqida arxiv hujjatlari orqali fikr-mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ombor, mehnat quollari, qishloq xo‘jaligi texnikasi, plug, seyalka, veyalka, grabli, borona jeneyka, kosilka, jatvonnaya mashina, bo‘lim, senokosilka, ot, ishchi hayvoni, ombor boshqaruvchisi, xizmatchi, ish haqi.

### УЧАСТИЕ ТАШКЕНТСКОГО СКЛАДА ОРУДИЙ ТРУДА И МАШИН В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА ТУРКЕСТАНА В НАЧАЛЕ XX ВЕКА (НА ОСНОВЕ АРХИВНЫХ ИСТОЧНИКОВ)

Аннотация

Об истории функционирования данного Ташкентского склада орудий труда и машин и его отделов на местах сообщается через архивные документы.

**Ключевые слова:** Склад, орудия труда, сельскохозяйственная техника, вилка, сеялка, веялка, грабли, борона дженейка, косилка, жатвенная машина, секция, сенокосилка, лошадь, рабочее животное, управляющий складом, горничная, оклад.

### PARTICIPATION OF THE TASHKENT LABOR WEAPONS AND MACHINERY WAREHOUSE IN THE DEVELOPMENT OF TURKESTAN AGRICULTURE AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY (BASED ON ARCHIVAL SOURCES)

Annotation

Comments are made through archival documents on the history of the work of the warehouse of Labor weapons and machines that operated in this Tashkent, as well as its activities of departments on the site.

**Key words:** Warehouse, labor weapon, agricultural technician, plough, seyalka, veyalka, grabli, borona jeneyka, kosilka, jatvonnaya machine, Department, senokosilka, horse, work animal, warehouse manager, clerk, payroll.

**Kirish.** XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, mintaqa dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish asosida imperiya hukumati imkon qadar ko‘proq foyda olishni ko‘zlagan edi. Shu maqsadda Rossiya Dehqonchilik va yer ishlari vazirligi tomonidan 1885-yilda Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati (TQXJ), 1898-yilda Turkiston qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyasi (TQXTS), shuningdek, bir qator qishloq xo‘jaligi havaskor uyushmalari tashkil etildi. Ko‘chirilgan rus dehqonlari va qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan 80 foizlik tub joy aholini o‘z davri zamonaviy texnikasi bilan ta‘minlash maqsadida 1900-yilda Toshkent mehnat quollari va qishloq xo‘jalik mashinalari omboriga asos solinib (ushbu ombor manbalarda “Toshkent davlat mehnat quollari va mashinalari ombori”, “Toshkent markaziy mashina va qishloq xo‘jaligi ombori” kabi nomlar bilan qayd etilgan) [1], 1901-yildayoq ombor savdo-sotiq aylanmasi mablag‘i 12 ming rublni tashkil etdi[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati hamda Turkiston qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyasi va ular tarkibidagi boshqa tuzilmalar asosan, arxiv manbalari asosida tahlil qilinadi. Bu mavzuga oid alohida tadqiqotlar bugungi kungacha to‘liq amalga oshirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy obyektivlik, tizimlashtirish, statistik tahlil metodlaridan unumli foydalanilgan.

**Tahil va natijalar.** Toshkent omborxonasi Rossiya imperiyasi markaziy guberniyalaridagi qishloq xo‘jaligi mashina va asbob-uskunalarini ishlab chiqaradigan zavodlar

bilan shartnoma asosida ulardan mehnat quollarini ko‘tara (optom) narxda arzon sotib olib, TQXJga a‘zo bo‘lgan havaskor sanoat bog‘lari egalari, paxtakor dehqonlarga nisbatan qulay narxda taklif etgan. Jumladan, Voronej qishloq xo‘jalik mashinalar zavodi 1902-yilda Toshkent omboriga senokosilka, grabli, ekin ekishda qo‘llaniladigan temir tishli borona, sno navli giyeneyka, 1 va 2 pozali (lemeshli) “Dezi” markalardagi pluglarni taklif etgan. Ushbu mehnat vositalari 10-15, 22-25 foizli chegirma bilan sotilishi nazarda tutilgan[3]. “Bromley birodarligi mexanika zavodi” ot kuchi 1 dan 50 gacha bo‘lgan 15 markadagi bug‘ dvigatellarini (ular tegirmon va suvni uzoqqa yetkazib beradi) 20 foizli chegirma bilan yetkazib bergan. Zavod va ombor boshqaruvi o‘rtasida bu borada o‘nlab xat almashuvlari bo‘lgan. Litvadagi Artinskiy davlat zavodi Litva o‘roqlari, molotok, o‘roqlarni o‘tkirlovchi mashina, bolta, yakor, boshqa temirdan qilingan o‘n turdagi tovarlarni yetkazib berish mas‘uliyatini o‘z bo‘yniga olar ekan, o‘z tovarlarini reklama qiluvchi maxsus risola nusxalarini Toshkentga yuborgan[4]. Odessa qishloq xo‘jalik mashinalari zavodi, Tula zavodi, Nijniy Novgorod zavodi, Verniturin, Baranchin, Nigieturin, Serebryanskiy, Sudogda kabi zavodlarga buyurtmalar qilingan.

Toshkent qishloq xo‘jalik mashinalar omborining Turkiston o‘lkasidagi bir qator shaharlarda bo‘lim (filial)lari faoliyat yuritgan. Jumladan, Andijon, Ashxabod, Avliyoota, Vannovskiy, Samarqand, Chernyayevskiy, Spasskiy, Verniy kabi shaharlarda omborlar bo‘lib, ular Toshkent omboridan va to‘g‘ridan to‘g‘ri Rossiya zavodlaridan mehnat quollarini

xarid qilib, dehqonlarga chegirmalar bilan sotgan yoxud 1/3, ¼ qism narxini to'lash sharti bilan kreditga bergan[5].

Joylardagi omborlarning yildan yilga roli oshib, hatto, Ashxobod ombori Marv, Tajan, Bayram Ali, Gumbet Kobuza, Tumanov posyolkasi, Kara-Kal'a aholi markazidagi bo'limlari bo'lgan[6]. Avliyoota omborida 1900-1909-yilda mashina va asbob-uskunalar xarid qilish hamda sotishda yuqori natijalarga erishgan bo'lmasa-da, 1909-yildan boshlab 1912-yilgacha uning mablag'i aylanmasi yiliga o'rtacha 4 ming rublni tashkil etgan bo'lsa, 1912-yilda 32,5ming rublga ko'paytirilgan. 1913-yilda omborning mablag' aylanmasi misli ko'rilmagan darajada ko'tarilib, 60984 rubl 26 kop.ni tashkil etgan. Ombordan asosan rus ko'chirilgan aholisiga mehnat qurollari sotilgan. Manbalarda bitta qirg'iz dehqoni 1 ta otga qo'shiladigan "Diring" markali senokosilkani 135 rublga sotib olganligi qayd etilgan. Ombordan mehnat qurollari sotib olganlarning 50 foizi yangi ko'chganlar, 37 foizi avval kelgan (eski ko'chgan)lar, 6 foizi tub joy aholi, 1 foizi amaldorlar hissasiga to'g'ri kelgan. 1913-yilda sotilgan tovarlarning 46 foizi (28434 rubl) telega (brichka), hosil yig'ishtiruvchi mashinalar, 20 foizi pluglar (11041 rubl), 5 foizi veyalka (2910 rubl), 3,5 foizi plug qismlari (2076 rubl) hissasiga to'g'ri kelgan. Naqd pulga 23936 rubl 76 kop. (39,2 foiz) kreditga 97047 rubl 50 kop. (60 foiz) mashinalar sotilgan. Biroq kreditga 39 foiz (23770 rubl) tovar sotish mo'ljallangandi. Dehqonlar xarid quvvati hisobga olinib, omborxona 60 foiz tovarlarni dehqonlarga kredit (ssuda)ga 10-15 foizga bergan[7]. Naqd pul to'lagan mijozlarga mehnat qurollari 5 foiz chegirma bilan sotilgan.

Andijon davlat qishloq xo'jalik omborida 1913-yilda umumiy bahosi 125777 rublga teng tovar mavjud edi. Xolbuki, ombor firma va zavodlardan 1901-yilda 64 rubl, 1912-yilga kelib 910 rubl 20 kop. qarzdor bo'lgan edi. 1913-yilda esa ombordan hosil yaxshi bo'lganligi uchun dehqonlar katta miqdorda texnikalar xarid qildilar, Andijon ombori 2438 rubl 20 kop. foyda qilib, aksincha dehqonlar undan qarzdor bo'lib qoldilar. Masalan, O'sh uyezdi O'zgan qishloqlik rus dehqoni N.B.Mixaylov 1914-yilda Andijon uyezdidan 36 rubl qarzdor bo'lib qolgan. Umuman, Farg'ona viloyatida 1307 ta ot va 769 qoramol bilan 3673 desyatina yerga ishlov beradigan 991 dehqon ombordan kreditga olgan texnika vositalari uchun qarzdor bo'lib qolgan[8].

Andijon omboridan boshqa hududlarga qaraganda tub joy aholi nisbatan ko'p yangi texnika xarid qilgan. Boshqa hududlardagi omborxonalariga murojaat qilgan mahalliy dehqonlar salmog'i 3 foizdan oshmagan holda, Andijon omboridan yengil, arzon plug, borona, veyalka, oz bo'lsa-da hosilni yig'ishtiruvchi mashinalar hamda o'g'itlardan superfosfat ko'p miqdorda xarid qilingan. Ayniqsa, Oqsoy, Sakka, hind-ingliz arzon pluglari, DT-2, DT-3 markali yengil pluglar xarid qilingan. Tog'dagi xo'jaliklar uchun qulay bo'lgan Shuls, Genat markali kichik o'lchamli veyalkalar mahalliy dehqonlarga qo'l kelgan. 1914-yilga kelib 1913-yilgi hosildorlik tufayli Andijon ombori savdo aylanmasi 12-15 ming rubl atrofida bo'lgan [9]. 1913-yilda tub joy dehqonlar ombordan 9000 rubllik mashinalar yutib olgan. Bu eng yuqori natija bo'lib, dehqonlar qo'l mehnatini bir qadar yengillatishga xizmat qildi. Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi tub joy dehqonlarga qulaylik yaratish maqsadida TQXJ N.F.Smidt savdo uyi firmasi orqali Andijon uyezdi boshlig'iga murojaat qilib, arzon, takomillashtirilgan omochning 2 ta turi: 1) og'irligi 1 pud 22 funt, narxi 10 rubl; 2) og'irligi 1 pud 3 funt, narxi 13 rubl kbilarni taklif etgan. Undan tashqari, po'latdan qilingan arzon va sifatli borona ham taklif etilgan, ushbu mehnat qurollari Andijon, O'sh, Namangan uyezdlarida tarqatilsa, dehqon xo'jaliklari uchun qo'l kelishi alohida qayd etilgan[10].

Tadqiqot davomida Toshkent qishloq xo'jalik mashinalari ombori va uning joylardagi bo'limlarida faoliyat

yuritgan xodimlar soni, mashinalari bilan bog'liq dalillar ham o'rganildi. Toshkent omborida 12 nafar xodim faoliyat yuritib, boshliq, ombor mudir, hisobchi, elektrik, idora xizmatchilari, ombor ishchilari, qorovul kabilardan iborat edi. Ombor boshlig'i 1200 rubl (1 yilda), ombor mudiri 780 rubl, elektrik 900 rubl (ombor elektrlashtirilgan bo'lib, elektrikka talab katta bo'lgan), omborxona xizmatchilari 480 rubl, omborxona ishchilari 264 rubl, qorovul 240-246 rubl miqdorida maosh olib, uzoq yillar maosh tariflari o'zgarmay turgan. Faqatgina 1913-yilga kelib, omborxona xizmatchilari maoshi 520 rublga, ishchilar maoshi 490 rublgacha oshirilgan. 1913-yil yanvardan ombor boshlig'i bir oyda 100 rubl, hisobchi 65 rubl, ish yurituvchi 45 rubl, yordamchi ish yurituvchi 30-35 rubl maosh oladigan bo'lgandi[11].

Joylardagi ombor bo'limlarida 2 kishidan 4 kishigacha xodim faoliyat yuritib, Andijon bo'limida qorovul bilan 4 nafar, Avliyoota bo'limida 2 nafar, Samarqand va Ashxobod bo'limida 3 nafar kishi faoliyat ko'rsatgan. Ular asosan bo'lim boshlig'i, ishchi, qorovul kabilardan iborat bo'lgan. 1916-yilga kelib, Toshkent markaziy omborxonasidagi ishchi o'rinlarining soni 18 nafarga yetkazilib, yillik maoshlari oshirilgan. Omborxona boshlig'i 1 yilda 2700 rubl, hisobchi 2100 rubl maosh olgan holda, xizmatchi va ishchilar 840 rubldan 600 rublgacha ish haqi olishgan. Ustaxona boshqaruvchisi ishchi o'rni tashkil etilib, unga 1800 rubl miqdorida maosh to'langan, qorovul maoshi 240 rubldan 360 rublgacha oshirildi. Ta'kidlash joizki, ustaxona ta'mirchisi dehqonlar ombordan olib ishlatishi oqibatida buzilgan texnika vositalarini tuzatish bilan band bo'lgan[12].

Toshkent omborxonasi va uning bo'limlarida bir qator muammolar ham mavjud edi. Jumladan, omborxonalarda bino bilan bog'liq jihatlar to'la hal etilmagan bo'lib, faqatgina 4 ta ombor, ya'ni Toshkent, Andijon, Ashxobod, Samarqand omborlari Dehqonchilik va Yer ishlari vazirligining Turkiston departamenti tasarrufidagi binolarda joylashgandi. 3 ta ombor Avliyoota, Vannovskiy, Chernyayevskiy omborlari ijaradagi binolarda joylashgan bo'lib, ijara haqi narxi yuqori edi. 1916-yilda omborlar mulki 100 ming rubl baholanib, harakatdagi buyumlar narxi 2395 rubl bo'lsa-da, barchasi o'z binosiga ega emasdi.

Ombor texnika vositalari va mashinalarni xarid qilish uchun bankdan qarz (kredit) olishiga to'g'ri kelar edi. 1914-1915-yillarda omborning turli bank va firmalardan qarzi 64 530 rubl 70 kop.ni tashkil etgan hamda qarz foizlari ko'payib borgan.

1901-1902-yillarda, 1905-1910-yillarda xaridorlar omborlardan qarzdor bo'lishgan. 1914-yil 1-yanvarda Toshkent omborxonasidan 977 dehqon qarzdor bo'lib, qarzlarning umumiy miqdori 20359 rubl, har bir dehqonga o'rtacha 54 rubldan to'g'ri kelgan[13].

Toshkent omboridan texnika vositalari boshqa omborlarga 3 foiz yuqori narx bilan berilgan, Yettisuv viloyati omborlariga 10 foiz ustama bilan taqdim etilgan. Toshkentdan Verniy(Almati)ga 1 pud texnikani yetkazib berish narxi 2 rubl edi. Agar Toshkent omborida pluglarning ko'tara narxi (Donskiy №0, №1, №2) 15 rubl, 24 rubl, 28 rubl bo'lsa, yetkazilgan joylarda 19 rubl, 28 rubl, 31 rubl baholangan[14].

Omborxonalar hamisha sifatli mehnat qurollari va qishloq xo'jalik mashinalari xarid qilishmagan. Ular manziliga po'lat plug, ketmon, lapatalr o'rni tezda ishdan chiqadigan cho'yan turlari yuborilgan. Yoxud mehnat qurollarining ehtiyoq qismlari yetkazib berishda katta uzilishlar ro'y bergan. Omborlarga reklama ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumot va e'lonlar o' vaqtida yetkazilmagan. Toshkent ombori Bryanskiy po'lat eritish zavodiga 2,2 rubldan 3,5 rublgacha baholanadigan po'lat ketmonlar partiyasini yuborishni so'ragan. Biroq, bu zavodda bunday ketmonlar ishlab chiqarilmasligi xabar qilingan.

Urush sharoitida (1914-1917-yillar) ombordagi tovarlar xaridi pasayib, qarzдорlardan qarzlari undirish qiyinlashgan. Ayniqsa, 1915-yilda Turkistondagi 403 nafar Rossiya fuqarolari harbiy xizmatga chaqirilib, ularning omborlardan 20232 rubl qarzi qolib ketgan.

Ta'kidlash joizki, omborxonalar bilan mijozlar o'rtasida qarzдорlikni qoplash masalasida sud jarayonlarigacha borib yetishiga to'g'ri kelgan vaziyatlar ham bo'lgan. Toshkent omborxonasi ma'muriyati bilan omborxonadan qarzдор bo'lganlar o'rtasida 1908-1914-yillarda 38 kishi bilan sudlashilgan. Jumlaan, 1908-yilda 2 kishi bilan sudlashilib, 344 rubl, 1909-yilda 1 kishidan 47 rubl, 1910-yilda 8 kishidan 294 rubl, 1911-yilda 1 kishidan 13 rubl, 1912-yilda 6 kishidan 274 rubl, 1913-1914-yillarda 253 rubl, jami 1770 rubl undirilgan[15].

Muammolardan yana biri omborxonalariga qishloq xo'jalik texnikalarini uzoq masofalardan tashib keltirish edi. Texnikalar Rossiya markaziy guberniyalaridan, asosan, temiryo'llar orqali Turkistonga keltiriladi, so'ngra arabalarda brichka (telega)da omborxonaga manziliga yetkaziladi. Temiryo'l tariflari yuqori bo'lgani uchun texnikalar bahosi bir qadar qimmatlashgan.

XX asr boshlarida temiryo'l tariflari yuklarni manziliga yetkazishda masofa uzoq yoki yaqinligiga qarab belgilangan. Bir pud qishloq xo'jalik asboblari tashib keltirish 1 chaqirimdan 180 chaqirimgacha har bir chqirim uchun 24/1 kop., 181 dan 500 chaqirimgacha 50/1 kop., 550 chaqirimdan 1745 chaqirimgacha 14,30 kop., 1745 chaqirimdan boshlab har bir pudiga 65/1 kop. miqdorida soliq olingan. Shu sababli Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati yig'ilishlarida (1910-yil 7-mart, 1910-yil 25-aprel, 1913-yil 21-avgust va h.k.) qishloq xo'jalik mashinalari keltirishda temiryo'l tariflarini pasaytirish masalasi muhokama qilingan[16].

Omborxonalaridagi muammolar qatoriga ularga keltirilgan va narx-navosi yuqoriligi yoxud sifati talabga javob bermagan mehnat qurollari, qishloq xo'jalik mashinalarining uzoq yillar davomida to'planib qolishi yoxud zanglab qolishini ham aytish mumkin. Narxi 290 rublgacha bo'lgan snopnos, 165 rubllik jatvennaya mashina, 125-130 rubl baholangan kosilka, 190 rubldan 280 rublgacha bo'lgan 2 ta va 4 ta ot tortadigan pluglar, 140 rubl baholangan masseybarris po'lat selokosilkasi, 310 rubllik senopolyazamka kabilarni sotib olish o'ziga to'q yoxud badavlat dehqonlar uchun ham og'ir edi. Dehqonlarga narxi 28 rubl, 34 rubl, 36 rubl, 40 rublgacha

bo'lgan CBN0, CBN1A, CBN2 markali "Ekkert" pluglari, narxi 26 rubl, 29 rubl, 32 rubl bo'lgan "Ekonom" madaniy po'lat pluglari[17], 28 rubl baholangan "Samoxod" plugi, makkajo'xori ezadigan, narxi 35 rubldan oshmagan molotilka va "Maliy bogatir" drobilkasi, 26 rubldan 40 rublgacha sotiladigan salomarukalar, 14 rubldan 24 rublgacha baholangan 8 markadagi Sudogda o'roqlari kabilar xarid qilish qulaklik uyg'otgan.

Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati a'zolari Turkiston qishloq xo'jalik tajriba stansiyasiga qarashli xo'jaliklar omborlar tomonidan zaruriy texnikalar bilan ta'minlandi. Ombor xizmatchilari Turkistonda faoliyat yuritgan, qishloq xo'jalik texnikalari yetkazib beradigan turli-tuman firma va kompaniyalar bilan aloqalar o'rnatdi. Ushbu firmalar omborlar buyurtmasi bilan AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlardan Rossiya orqali ekinni ekishda, ishlov berishda, yig'ishtirishda, tashishda xizmat qiladigan texnikalarni Turkistonga keltirdilar. Biroq, tub joy aholining xarid quvvati, dehqonchilik madaniyati past bovlganligi tufayli ushbu texnikalar ular xo'jaligiga chuqur kirib bormagan. Omborxonalaridan texnik vositalar xarid qiladigan mahalliy dehqonlar salmog'i 5-6 foizdan yuqori emasdi.

Turkiston omborxonalaridagi qishloq xo'jalik texnikalari Rossiya shaharlarida o'tkazilgan qishloq xo'jalik ko'rgazmalarida namoyish etilib, mukofotga sazovor bo'lganlar. Masalan, 1901-yilda Ryazan shahridagi ko'rgazmada jenyeka senokosilka kultivatori oltin medalga, otga qo'shiladigan grabl va barona kichik oltin medalga, hosilni yig'ishtirish bilan bog'liq texnikalar faxrli diplomga sazovor bo'lgan. Eng katta qiziqish senokosilkaga bildirilib, uni namoyish etgan Toshkent omborxonasi egasiga pul mukofoti berilgan. Xullas, omborxonalar ham ko'rgazma va yarmarkalar ishtirokchisi bo'lishgan.

**Xulosa va takliflar.** Toshkent qishloq xo'jaligi mashinalari ombori Turkistonda qishloq xo'jaligi texnikalarining yangi turlarini tarqatishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining oshishiga, hosilning yaxshilanishiga xizmat qilgan. Bu kabi ma'lumotlar arxiv manbalarida keng yoritib berilgan. Yuqorda ko'rsatilgan kamchilik va muammolarga qaramay, Turkistondagi qishloq xo'jalik omborlari dehqonlarga nisbatan arzon texnikalar bilan ta'minlashga, yuzlab xo'jaliklarga kredit hisobiga texnik vositalar tashqatishda, texnik-ta'mirlash ishlarida muhim amaliy yordam berdi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 29-yig'ma jild, 5-varaq, 106-yig'ma jild, 259-varaq.
2. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 29-yig'ma jild, 7-varaq.
3. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'ma jild, 80, 81, 82-varaqlar.
4. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'ma jild, 86, 87-varaqlar, 97, 98, 99, 100, 102, 103-varaqlar.
5. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 106-yig'ma jild, 35-varaq, 35-varaq orqasi, 36-varaq.
6. O'MA, I-4-fond, 1-ro'yxat, 106-yig'ma jild, 39-varaq.
7. O'MA, I-4-fond, 1-ro'yxat, 106-yig'ma jild, 18A-varaq, 18B-varaq.
8. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 106-yig'ma jild, 27, 28, 29-varaqlar.
9. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 106-yig'ma jild, 29A, 29B varaqlar, 29A, 29B varaqlarning orqa tomoni.
10. O'MA, I-103-fond, 1-ro'yxat, 27-yig'ma jild, 78-79-varaqlar.
11. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 104-yig'ma jild, 5, 6, 7-varaqlar, 7-varaqning orqasi, 11-varaq, 22-varaq, 41-varaq, 99-varaq, 130, 135, 136-varaqlar.
12. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 104-yig'ma jild, 259, 260-varaqlar.
13. O'MA, I-104-fond, 1-ro'yxat, 86-yig'ma jild, 17, 17A-varaqlar.
14. O'MA, 104-fond, 1-ro'yxat, 29-yig'ma jild, 17A-varaq, 20, 21A, 22, 23-varaqlar.
15. O'MA, 104-fond, 1-ro'yxat, 29-yig'ma jild, 17A-varaq, 20, 21A, 22, 23-varaqlar.
16. O'MA, 103-fond, 1-ro'yxat, 122-yig'ma jild, 18, 19, 20-varaqlar.
17. O'MA, 104-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'ma jild, 109-varaq, 109A-varaq, 110-varaq, 110A-varaq